

SHAXS TAFAKKURI VA UNING SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA YORITILISHI

Berdiyeva Lobar Norqobulovna

Axborot texnologiya va Menejment universiteti,

Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17248034>

Annotatsiya. *Tafakkur nafaqat muammoli vaziyatlarni hal qilishda sodir bo'ladi, balki tafakkur jarayoni axborotni yaratishga, uni tanlashga asoslanadi. Ushbu maqolada shaxs tafakkuri va uning Sharq mutafakkirlari asarlarida yoritilishiga oid fikr-mulohazalar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Markaziy Osiyo mutafakkirlari, tafakkur, bilish, bilish xususiyatlari, inson tafakkuri, produktiv tafakkur, reproduktiv tafakkur.*

Annotation. *Thinking occurs not only in solving problematic situations but is also based on the creation and selection of information. This article presents reflections on human thinking and its interpretation in the works of Eastern thinkers.*

Keywords: *Central Asian thinkers, thinking, cognition, features of cognition, human thinking, productive thinking, reproductive thinking.*

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiy kamolot va mukammalik haqidagi g'oyalari ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyot, falsafa, diniy fikrlar taraqqiyotiga hamda insoniyat tafakkur xazinasiga qo'shilgan katta hissa bo'lib, asrlar mobaynida dunyo xalqlarini o'zining sarmazmunligi, universalligi va insonparvarligi bilan xayratga solgan.

Buyuk olim Abu Nasr Forobiy aql orqali tafakkur yordamida bilishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qilgan. Tafakkur mavhumlikka, umumiylik, bilvositalikka, ya'ni sezgilar orqali bilish xususiyatlariga ega deb tushuntiradi. Avvalo, har qanday insonning mohiyati uning aqlida ekanligiga alloma diqqatini qaratib, quyidagi fikrni keltirib o'tgan: "Inson mohiyati aqlda, aqlning mohiyati harakatda namoyon bo'ladi". Uning ta'limotiga muvofiq, tafakkur orqali inson materiyaning sezgilarga noma'lum bo'lgan tomonlarini, umumiy qonuniyatlarini, mohiyatini biladi, san'at, ilm-fan to'g'risidagi bilimlarga ega bo'ladi.

Forobiyning ijodiy fikr yuritish, tafakkur xususiyatlari haqidagi fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatiga ega.

Tafakkur bilan bog'liq nazary-metodologik masalalarni hal qilishda Abu Rayhon Beruniy hamda Ibn Sinolarning fikrlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Beruniy insonning boshqa mavjudotlardan uning tafakkuri ajratishini ta'kidlab, o'zining mashhur "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida ma'naviy mamnuniyat konsepsiyasini ilgari suradi. Unga ko'ra: "Oqil kishi hamma narsani aql-idrok va farosat bilan his qilgandagina ma'naviy mamnuniyat sezadi, holbuki beg'am odam jismoniy lazzatnigina tan oladi".

Inson tafakkurining qudrati shundaki, uning yordamida voqea va hodisalarni bir-biriga solishtirish, tahlil qilish orqali rostni yolg'ondan, adolatni adolatsizlikdan, yaxshini yomondan, haqiqatni esa nohaqlikdan ajratish mumkin. Bu esa bo'lajak o'quvchilarda tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

G'oyani ilgari surishda, usulni qurishda, farazni shakllantirishda, ularning tahlilini va tanlovini taidim etishda ham yaqqol namoyon bo'lishini ta'kidlash kerak. Bu borada ba'zi psixologlar tafakkurni ikki turga ajratadilar: produktiv tafakkur va reproduktiv tafakkur.

Produktiv tafakkur muammoli vaziyatlarda axborotni yaratishga, reproduktiv tafakkur esa mavjud bilimlardan foydalanishga asoslanadi.

Yangi o'zaro aloqalarni anglashga xos bo'lgan produktiv tafakkur ijodiy deb ham aytiladi. Shaxs u uchun yangi, ammo jamiyat uchun ma'lum bo'lgan o'zaro aloqalarni o'zi tushunishida mazkur tafakkur shaxsiy-ijodiy bo'ladi, shaxs jamiyat uchun ma'lum bo'lmagan o'zaro aloqalarni tushunishida esa tafakkur ijtimoiy-ijodiy bo'ladi. Inson o'zi uchun hal qilinishi kerak bo'lgan muammoga aylangan, biroq uni hal qilishning tayyor usuliga ega bo'lmagan vaziyatga tushib qolganda, tafakkur darhol ishga tushadi. Yerdan Oygacha yoki Yerdan Quyoshgacha bo'lgan masofani hisoblash so'ralgan inson kerakli qoidalar va formulalarni bilmaganida aynan shunday vaziyatga tushib qolishi mumkin.

Kichik maktab o'quvchilaridagi tafakkur jarayonini kuzatishda ta'kidlashimiz mumkinki, mazkur jarayon nutq qobiliyatidan oldinroq boshlanadi¹. O'quvchi avval so'zlarni tushunishni o'rganadi va shundan keyingina gapira boshlaydi. Uning "ongida", miyasida ma'lum bir bilish tajribasi zaxirasi, ko'nikma-tushunchaviy tuzilmalar to'planib, ular uning atrofidagi odamlar tomonidan aytilgan so'zlarni faollashtiradi va xotiraga singdiradi. Ob'yektni o'rganishda bola uning nomini eshitadi, buning natijasida u ob'yektning tasvirini uning nomi bilan bog'laydi, uning nomi esa, o'z navbatida, u uchun predmetning ifodasiga aylanadi. Predmetning tasviri birinchi marta tushunilib, bevosita signalga aylanishi sababli, "so'z ham bu signalning signaliga, ya'ni ikkinchi tartibli signalga aylanadi"².

Dastlab alohida predmetning signali bo'lgan so'z, keyinchalik o'quvchi uchun nafaqat bu predmetni, balki unga o'xshash boshqa predmetlarni ham ifodalaydi.

Ilmiy nuqtai nazaridan tafakkurni tavsiflash uchun predmet haqidagi bilim hamda mazkur predmet tushunchasini farqlay olish lozim. Psixologik tavsif xulosalar va tushunchalarni sodda mantiqiy ajratib ko'rsatish chegarasidan tashqariga chiqadi. Predmet haqidagi bilimni turli fikrlar, tasavvurlar, shuningdek tushunchalar va keng tarqalgan qarashlarning mazmuni tashkil qiladi. Odatiy kunlik tafakkurda ushbu barcha tuzilmalar ishtirok etadi. Aniq ilmiy tafakkur qilish uchun operativ birliklar kerak bo'lib predmet haqidagi bilim tafakkurning markazi hisoblanadi³.

Predmet haqidagi bilimlar va ayniqsa u haqida tushuncha bosh miya po'stlog'ida murakkab dinamik tuzilmalarni yaratadi. Tilni bilish asosida qurilgan tushunchalarning murakkab iyerarxiyasi fikrga voqelikdan ajralish imkonini beradi. Biz ob'yektni bevosita kuzatmasdan u haqida o'ylashimiz mumkin. Inson tafakkurining mohiyati shundaki, u har safar muayyan predmetlarni kuzatishga qaytmasdan, "fikrlarda" predmetlar bilan turli xil manipulyatsiyalarini amalga oshirishi mumkin.

Aynan tafakkur tufayli biz atrofdagi va o'zimizning voqeligimizni tobora chuqurroq va to'g'riroq idrok eta olamiz, shuningdek, alohida shaxs va butun insoniyat miqyosida prognozlash va rejalashtirish qobiliyatiga ega bo'lamiz.

Tafakkur jarayonida o'rganilayotgan hodisaga yagona (yaxlit) yondashuvga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv yagona tizimga kiritilgan hodisani tadqiq qilish bilan to'liq tavsiflanib, bunda biz nafaqat har bir elementni alohida, balki butun tizim sharoitida ushbu elementlarning o'zaro bog'liqligini ham tushunamiz.

1Yaminova S.H. O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ssenariyli o'qitish usulidan foydalanish: Ped. fan. nom. ... dis.-Toshkent, 1997. – 198 b.

2Yaminova S.H. O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ssenariyli o'qitish usulidan foydalanish: Ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent, 1997. – 43-6. 198 b.

3 G'oziyevE. Ta'lim jarayonida o'quvchilar tafakkurining o'sishi. T: O'qituvchi, 1980. – 35-6 . 88 b.

“Hodisalarni tadqiq qilishda yagona yondashuvga e’tibor bermaslik nomaqbul oqibatlariga olib kelishi mumkin: masalan, metall o’tkazgichni isitish paytida qarshilikning o’zgarishi, agar qarshilik xususiyatlarini o’rganish uchun issiq lampalar ishlatilsa, Om qonunlarini ko’rsatishga imkon bermaydi”⁴.

“Tafakkur” tushunchasini o’rganishda biz uchun quyidagi savollarga javoblar muhimdir: Ob’yektni tushunishning birinchi usuli qanday: tahlil yoki sintez?

ijodiy bilishni qanday tashkil qilish kerak: tadqiq qilishda tarkibiy qismlardan yoki butundan nima oldinda bo’lishi kerak?

qaysi fikr to’g’ri: yaxlitlik o’z tarkibiy qismlarining belgilari orqali tavsiflanadimi yoki tarkibiy qismlarning xususiyatlari butunlik bilan belgilanadimi?

Yaxlitlik faqat uning tarkibiy qismlarining yig’indisi emas. Yaxlitlik haqidagi bilim nafaqat alohida qismlarni bilishga, balki ularning o’zaro bog’liqligiga, tizimning yaxlitligini ta’minlashga, shuningdek, metatizimning asosiy tarkibiy qismi sifatida butun tizimning ishlashi bilan tanishishga asoslanadi. Ehtimol, biz butunni alohida qismlar orqali bilamiz, lekin butunning tarkibiy qismlarini faqat yaxlitlik haqidagi bilimlar asosida bilish mumkin. “Alohida qism va butun o’rtasida funksional bog’liqlik mavjud”⁵.

O’quvchini rivojlantirishining maqsadi uning intellektini rivojlantirish ekanligini hisobga olib, quyidagi muammoni hal qilish kerak: alohida qismlarni bilish orqali yaxlitlikni bilishni qanday tashkil qilish kerak? “O’quv jarayonini, ilmiy izlanish kabi, tarkibiy qismlarni bilish ular orasidagi bog’lanishlarni buzmasdan va shu orqali butunlikni buzmasdan mumkin bo’ladigan tarzda tashkil etib bo’lmaydi. Tizimning yaxlitligini buzmasdan, uning tarkibiy qismlarini ularning munosabatlarida tushunishga imkon beradigan o’qitish metodikasi juda samarali. Biroq didaktik tuzilmalarda ham, fanda ham ba’zan uni chuqurroq o’rganish uchun uni butundan ajratishga to’g’ri keladi. Bu ajratilgan qism endi bilishning mustaqil ob’yektiga aylanadi”⁶.

Masalan, tabiatda chaqmoq xodisasini bilish mazkur jarayonning har bir jihatini o’rganish uchun xizmat qiladigan voqeylikni bog’lash qobiliyatini talab qiladi. Qismlardan birini tanlab, biz jarayonning yaxlitligini buzamiz va butundan farq qiladigan boshqa bilish ob’yektini, masalan, yomg’ir xodisasini olamiz. Shubhasiz, u bilan tanishish ham kerak, lekin yomg’ir xodisasi va umuman tabiatda chaqmoq hodisasi sifatida o’rganish butunlay boshqacha mantiqiy va didaktik yondashuvlarni talab qiladi⁷.

Birinchi jihat chaqmoq xodisasining o’zida voqelik, alohida qismlar va ularning aloqalari haqidagi bilim asoslaridan foydalanadi. Bunday holda, tashqi aloqalar muhim emas.

Ikkinchi jihat ma’lum bir ob’yektni – chaqmoq xodisasini yaxlit o’rganishni talab qiladi.

Bu yerda xodisani paydo bo’lish kerakligi talabidan kelib chiqadigan xodisalari (yomg’ir, shamol, bug’lanish) qismlari orasidagi aloqalarni o’rganish birinchi o’ringa chiqadi. Bunda oxirgi talabni ta’minlaydigan shartni ta’kidlash kerak.

Butunlikni bilish oqilona tarzda va ikki yo’nalishda amalga oshirilishi kerak:

xususiyydan umumiyga;

umumiydan xususiyyga.

Tafakkur jarayonida biz tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan ajralmas birlikda foydalanamiz. Fanda qaysi yo’nalish ustuvor bo’lishi kerak?

4Князева О. Л. особенности поисковой деятельности в наглядно-действенном мышлении у детей дошкольного возраста. Дисс.М.:1995.64-с. 173 с

5Дайана Халпери. Психология критического мышления. – Санкт-Петербург.: Луч, 2000. – 59-с 147с.

6Дайана Халпери. Психология критического мышления. – Санкт-Петербург.: Луч, 2000. – 59-с 147с.

7G’ulomovS. S. Dalillarni eslab qolish va g’oyalarni isbotlash.- T.: O’qituvchi, 2005. –178 bet.

S.L.Rubinshteyn: “Bolaning kuzatishlarida qaysi biri – butun yoki xususiy bo’yicha xulosa chiqarish osonroq bo’lsa, butunlik ham, xususiylik ham birinchi o’rinda chiqishi mumkin”, -deb ta’kidlaydi⁸.

Mazkur fikrda bizningcha, aynan shu muammo ya’ni, birinchi o’rinda nima - butun yoki xususiy turishi kerakligini metodika aniq o’quv materialini chuqur tahlil qilish asosida hal qilishi kerak. Nazariy va amaliy jihatdan nafaqat foydalanish imkoniyatini, balki alohida qismlarning, ularning aloqalarining, shuningdek, butunning ahamiyatini ham baholash kerak.

Qism – butun o’rtasidagi bog’liqlik masalasi o’quvchilarni uslubiy tushunchalar tizimini shakllantirishga, yagona yondashuvga asoslangan tafakkurning o’ziga xos xususiyatlarini bilishga olib keladi, ixtiyoriy obyektni o’rganishda qarama-qarshi dialektik tushunchalarning ishlashini, ularning o’zaro munosabatlarini bilish va tushunish usullari bilan qurollantiradi, bu esa tafakurni shakllantirishning oxirgi qadami bo’lib hisoblanadi. “Xususiy” va “umumiy” toifalari doimo nomukammal tasavvurdan boshlanadigan bilimning rivojlanishini aniqlaydi, so’ngra tahlil yordamida u qismlarga bo’linadi, ular o’z navbatida bilish obyektlarini va olingan bilimlar esa sintezlanadi va obyektni ongda bir butun sifatida takrorlash jarayonini tugatadi.

Tafakkurni shakllantirish nuqtai nazaridan “mavhum” va “aniq” tushunchalari o’rtasidagi bog’liqlik muhimdir. Psixologlar “aniq” tushunchasini ong bilan, “mavhum” tushunchasini esa idrok bilan bog’laydi. Gegel fikriga ko’ra, mavhumlashtirish tahlil natijasi, aniq fikrlash esa idrok faoliyati doirasidan chiqadigan ong vositasida sintez qilish natijasi bo’lib hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tafakkur qilish qobiliyati ongning muhim xususiyati bo’lib, uni aqlning faqat ma’lum bir rivojlanishi bilan bog’lab bo’lmaydi. Dialektik mantiq elementlari “sog’lom idrok” darajasida ham namoyon bo’ladi. O’quv jarayonida o’quvchilarning tafakkuri yangi o’quv materialini murakkablashtirish, darslik mazmunini o’rganish, fizikaviy tajribalarni tashkil etishning dialektik usulini qo’llash orqali, ya’ni fizika va boshqa fanlarni o’qitishning butun didaktika tizimida bosqichma-bosqich, katta bosimsiz rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmonqulova N.X., Matnazarova K.O. *Pedagogika nazariyasi va tarixi: o’quv qo’llanma*. T.: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
2. Kamoldinov M., Vaxobjonov B. *Innovatsion pedagogic texnologiya asoslari*. T.: Talqin, 2010.
3. Djurayev R.H. *Ta’limda interfaol texnologiyalar*. T.: Sano-Standart, 2010.
4. Shodmonova Sh.S. va boshqalar. *Pedagogik texnologiyalar*. T.: Fan vatexnologiya, 2011.
5. G’oziyev E. Ta’lim jarayonida tafakkurning o’sishi. T: O’qituvchi. 1980-43-b. 88.

⁸Рубинштейн С.Л. Основы общей психология. -СПб.: Питер, 2013. 95-с. -713 с.